

## **XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT**

### **Asosiy demografik ko'rsatkichlar**

2026-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2 107,0 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 1,4 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 43,7 ming nafarni, vafot etganlar 9,4 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 34,3 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 11 kishini va viloyatimizdan xorijga ko'chib ketganlar soni 134 kishini. Qayd etilgan nikohlar 14,9 mingtani, nikohdan ajralishlar 2,4 mingtani tashkil etgan.

<b>Doimiy aholi soni</b>	<b>2 107,0</b>	<i>ming kishi</i>
<b>Tug'ilishlar soni</b>	<b>43,7</b>	<i>ming kishi</i>
<b>O'lganlar soni</b>	<b>9,4</b>	<i>ming kishi</i>
<b>Xorijdan ko'chib kelganlar</b>	<b>11</b>	<i>kishi</i>
<b>Xorijga ko'chib ketganlar</b>	<b>134</b>	<i>kishi</i>
<b>Nikohlar soni</b>	<b>14,9</b>	<i>ming birlik</i>
<b>Nikohdan ajralishlar soni</b>	<b>2,4</b>	<i>ming birlik</i>

### Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2 107,0 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,0 ming kishiga yoki 1,4 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 774,8 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,8 %), qishloq joylarda esa 1 332,2 ming kishi (63,2 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 050,4 ming kishini (49,9 %), erkaklar esa 1 056,6 ming kishini (50,1 %), tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni

	2024-yil	2025-yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 077,0</b>	<b>2 107,0</b>	<b>101,4</b>
Buxoro shahri	300,2	304,7	101,5
Kogon shahri	65,5	66,1	100,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	105,8	107,3	101,4
Buxoro	181,7	185,0	101,8
Vobkent	151,2	154,0	101,9
G'ijduvon	327,5	331,9	101,3
Kogon	86,3	88,0	102,0
Qorako'l	174,3	176,4	101,2
Qorovulbozor	20,3	20,7	102,0
Peshku	133,5	135,8	101,7
Romitan	153,5	155,3	101,2
Jondor	188,8	191,9	101,6
Shofirkon	188,4	189,9	100,8

Buxoro viloyatida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 52,4 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvarida ushbu ko'rsatkich 51,6 kishini, 2021-yilning xuddi shu davrida esa ushbu ko'rsatkich 48,4 kishini tashkil etgan.


### Aholi zichligi



### Tirik tug'ishlar


Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ishlar soni 43,7 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ish koeffitsiyenti 20,9 promilleni tashkil etdi. Tug'ishlar sonida 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming nafarga kamaygan.

### Buxoro viloyatida qayd etilgan tug'ishlar soni




Viloyatda tirik tug‘ilganlar soni 43,7 ming kishini, shundan o‘g‘il bolalar soni 22,5 ming kishini (jami tug‘ilganlar soniga nisbatan 51,5 %), qiz bolalar soni 21,2 ming kishini (48,5 %) tashkil etdi.

### Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi



### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi




Viloyatda tirik tug‘ilganlar soni 43,7 ming kishini, shundan shahar joylarida 15,0 ming kishini (jami tug‘ilganlar soniga nisbatan 34,3 %), qishloq joylarida 28,7 ming kishini (65,7 %) tashkil etdi.

### Vafot etganlar


Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlar soni 9,4 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridan 2022-yilning mos davriga qadar barqaror o‘sish kuzatilib, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming kishiga kamaygan.

### Buxoro viloyatida vafot etganlar soni




### Jinslar bo'yicha taqsimlanishi

Viloyatda vafot etganlar soni 9,4 ming kishini, shundan erkaklar 5,1 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 54,3 %), ayollar 4,3 ming kishini (45,7 %) tashkil etdi.



### Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi




Viloyatda vafot etganlar soni 9,4 ming kishini, shundan shahar joylarida 3,7 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 39,4 %), qishloq joylarida 5,7 ming kishini (60,6 %) tashkil etdi.

### Nikoh tuzganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni 14,9 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridan 2021-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming nafarga kamaygan.

### Buxoro viloyatida qayd etilgan nikoh tuzganlar soni




2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida qayd etilgan nikohdan ajrashgan ayollarning o'rtacha yoshi 22,0 yoshni, erkaklarning o'rtacha yoshi esa 26,5 yoshni tashkil etgan.

#### Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi



#### Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi




Viloyatda nikoh tuzganlar soni 14,9 ming birlikni, shundan shahar joylarida 5,5 ming birlikni (36,9 %), qishloq joylarida 9,4 ming birlikni (63,1 %) tashkil etdi.

#### Nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar- dekabr oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni 2,4 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar sonida 2020-yilning yanvar- dekabr oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar- dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming nafarga ko'paygan.

#### Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni




2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida qayd etilgan nikohdan ajrashgan ayollarning o'rtacha yoshi 31,5 yoshni, erkaklarning o'rtacha yoshi esa 34,7 yoshni tashkil etgan.

#### Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi



#### Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi



Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 2,4 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,2 ming birlikni (50,0 %), qishloq joylarida 1,2 ming birlikni (50,0 %) tashkil etdi.

#### Aholi migratsiyasi


##### Ko'chib kelganlar soni

2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 9 916 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 9 905 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 11 kishini tashkil etdi.

**Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni**

	Ko'chib kelganlar soni		
	Umumiy	shundan:	
		ichki	tashqi
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>9 916</b>	<b>9 905</b>	<b>11</b>
Buxoro shahri	3 667	3 662	5
Kogon shahri	557	557	-
<i>tumanlar:</i>			
Olot	186	186	-
Buxoro	1 582	1 582	-
Vobkent	401	401	-
G'ijduvon	646	646	-
Kogon	840	838	2
Qorako'l	321	319	2
Qorovulbozor	376	376	-
Peshku	239	238	1
Romitan	268	268	-
Jondor	342	342	-
Shofirkon	491	490	1

**Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar**




### Ko'chib ketganlar soni

2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 14 166 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 14 032 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 134 kishini tashkil etdi.

### Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib ketganlar soni

	Ko'chib ketganlar soni		
	Umumiy	<i>shundan:</i>	
		ichki	tashqi
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>14 166</b>	<b>14 032</b>	<b>134</b>
Buxoro shahri	3 446	3 429	17
Kogon shahri	638	636	2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	473	473	-
Buxoro	1 454	1 454	-
Vobkent	787	787	-
G'ijduvon	2 063	2 049	14
Kogon	768	768	-
Qorako'l	1 041	1 041	-
Qorovulbozor	284	251	33
Peshku	450	438	12
Romitan	580	530	50
Jondor	732	732	-
Shofirkon	1 450	1 444	6

### Xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar



### Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** - oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 ta aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** - hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.